

## YOSHLAR TARBIYASIDA “NAVRO‘Z” BAYRAMINING O‘RNI VA UNING O‘ZIGA XOS URF-ODATLARI TO‘G‘RISIDA

To‘laganova Sayyora Nazarkulovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni, xususan, Navro‘z bayramining ahamiyati yoritib berilgan. Navro‘z azaldan xalqimiz hayotida muhim o‘rin egallab, u orqali insonparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlar targ‘ib etiladi. Shuningdek, bayramga xos urf-odatlar, an‘analar va ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada Navro‘zning ma‘naviy-tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Navro‘z, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, urf-odatlar, an‘analar, ma‘naviyat.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматривается роль национальных ценностей в воспитании молодежи, в частности значение праздника Навруз. Навруз занимает особое место в жизни народа и способствует формированию таких качеств, как гуманизм, доброта и толерантность. Также анализируются традиции и обычаи, связанные с этим праздником, и их влияние на воспитание подрастающего поколения. Особое внимание уделяется духовно-нравственному значению Навруза.*

**Ключевые слова:** Навруз, национальные ценности, воспитание молодежи, традиции, обычаи, духовность.

### ABSTRACT

*This article examines the role of national values in youth education, with a particular focus on the significance of the Nowruz festival. Nowruz has long held an important place in people's lives, promoting values such as humanity, kindness, and tolerance. The paper also analyzes the customs and traditions associated with the holiday and their impact on the upbringing of the younger generation. Special attention is given to the spiritual and educational importance of Nowruz.*

**Keywords:** Nowruz, national values, youth education, traditions, customs, spirituality.

### KIRISH

Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Navro‘z bayrami nishonlanadigan kunlarning dam olish kuni deb e‘lon qilingani mamlakatimizda keng

ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratilishiga, xususan, turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Navro‘z barcha viloyatlarning shahar va qishloqlarida, korxonalarda hamda ilm-fan dargohlarida o‘ziga xos tarzda, ko‘tarinki kayfiyat va tashabbus bilan o‘tkaziladi. Bayram kunlari turli xil musobaqalar, keksalar bilan muloqotlar tashkil etiladi. Bahor ko‘katlaridan tayyorlangan noz-ne‘matlar tortiq qilinadi. Shuningdek, barcha viloyatlarning iste‘dodli yosh xonandalari bayram dasturlarida faol ishtirok etadilar.

Bu bayram xalqimizning orzu-umidlarini, yurt tinchligi va osoyishtaligini ulug‘laydigan, yaxshilik va ezgulikni targ‘ib etadigan, insonlarni bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishga chorlaydigan ulug‘ ayyomdir. U turli elatlar, millatlar va e‘tiqod vakillari tomonidan “Yangi yil bayrami” sifatida ham nishonlanadi. Navro‘zda “qishning yakuni” va bahorning kirib kelishi nishonlanib, odamlar bir-birini tabriklaydi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Navro‘z va uning tarixi haqida allomalarimiz asarlariga murojaat qilamiz. Firdavsiy Shohnoma asarida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘langanini va ushbu kun “Navro‘z” deb atalishini qayd etadi. Rivoyatga ko‘ra, Jamshid insonlarga hunar o‘rgatib, temir eritish, kiyim to‘qish, imorat qurish, tabobat sirlarini ochish kabi ishlarga asos solgan va nihoyat ulug‘ ishlari natijasida taxt yaratib, osmonga ko‘tarilgan. Shu voqea sodir bo‘lgan kun Navro‘z sifatida nishonlangan [1, 24-b.].

Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida ham Jamshidning ulug‘ kashfiyotlari natijasida Navro‘z bayrami paydo bo‘lganini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, Jamshid ulkan bino qurdirib, unda tantana o‘tkazgan va Quyosh burji bilan bog‘liq holda ushbu kunni Navro‘z deb atagan [2, 76-b.].

Abu Rayhon Beruniy ham Navro‘zning kelib chiqishini Jamshid haqidagi rivoyatlar bilan bog‘laydi. U o‘z asarlarida bu kunning xalq orasida bayram sifatida qadimdan nishonlanganini qayd etadi.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning Osor al-boqiya asarida ham Navro‘zga oid muhim ma‘lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Abu Bakr Narshaxiy Buxoro tarixi asarida ham Navro‘z bilan bog‘liq urf-odatlar va xalq qo‘shiq-lari haqida ma‘lumotlar berilgan [3, 68-b.].

Manbalarda keltirilishicha, Navro‘z bayrami miloddan avvalgi VI–V asrlardan boshlab keng nishonlangan. Bayramning eng muhim urf-odatlaridan biri — sumalak tayyorlashdir. Sumalak bahor faslida, ayniqsa Navro‘z arafasida tayyorlanadigan qadimiy taom bo‘lib, u ko‘pchilik ishtirokida pishiriladi. Bu jarayon odamlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamjihatlik va mehr-oqibatni mustahkamlaydi [4].

X asr tarixchisi Abu Bakr Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida Siyovush haqidagi qo‘shiqlar juda qadimiy bo‘lib, ularning tarixi ming yillar bilan o‘lchanishini ta’kidlaydi [5, 24-b.].

Navro‘z asosan bahorgi tengkunlik — 21–22 martdan boshlab nishonlanadigan, bir hafta, o‘n kun, hatto ayrim hududlarda bir oygacha davom etadigan umumxalq bayramidir. Navro‘z dehqon, cho‘pon, hunarmand va umuman barcha qatlam vakillarining haqiqiy umumxalq bayrami hisoblanadi.

Tarixda Navro‘zga munosabat har doim bir xil bo‘lmagan. Turli davrlarda bayramga nisbatan turlicha yondashuvlar kuzatilgan. Masalan, Sosoniylar davrida Navro‘zni yozgi tengkunlikda nishonlashga urinishlar bo‘lgan. Biroq xalq orasida u baribir bahor faslida nishonlanib kelgan va bunday urinishlar muvaffaqiyat qozonmagan.

1990-yildan boshlab Navro‘z mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Uning tiklanishi natijasida qadimiy urf-odatlar va marosimlar qayta jonlandi.

Navro‘z bayramining asosiy qismi xalq tomoshalaridan iborat bo‘lgan. Xalq orasida qadimdan “maydon tomoshasi” tushunchasi mavjud bo‘lib, u maxsus sahnalarda emas, balki ochiq maydonlarda o‘tkaziladigan chiqishlarni anglatadi. Bunday tomoshalarda qiziqchilar, dorbozlar, askiyachilar va xalq ansambllari ishtirok etgan.

Navro‘z munosabati bilan aynan shu maydon tomoshalari an’anasi qayta tiklandi. Masalan, qadimiy “kovush raqsi” ayrim hududlarda saqlanib qolgan bo‘lib, bugungi kunda u bayram dasturlariga kiritilmoqda. Shu bilan birga, qayta tiklangan qo‘shiq va raqslar asosida falklor-etnografik ansambllar faoliyati keng rivojlandi. Hozirda har bir viloyat, tuman va hatto qishloqlarda ham bunday jamoalar mavjud. Ularning repertuarida Navro‘z bilan bog‘liq urf-odatlar, qo‘shiqlar va laparlar sahnaviy talqinda namoyon etilmoqda. Jumladan, “kelin salom” marosimi ham sahnaviy shaklda qayta ishlangan bo‘lib, unda an’anaviy mazmun saqlangan holda badiiy ifoda kuchaytirilgan. Shuningdek, qo‘sh haydash, xirmon sovurish va hunarmandchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari ham sahna ko‘rinishlarida aks etmoqda. Bu holat milliy madaniyatimizning muhim yutug‘i hisoblanadi.

Navro‘z haqida qadimiy yozma manbalarda ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Abu Rayhon Beruniy yozadi: “Bu kun — farishtalar qadrlaydigan kundir, chunki shu kuni ular yaratilgan. Bu kunni payg‘ambarlar ham ulug‘laydi, chunki shu kuni quyosh yaratilgan. Bu kunni shohlar ham qadrlaydilar, chunki u yilning birinchi kunidir” [3, 72-b.].

Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, Navro‘z haqida ilk tasvirlar XIV asr manbalarida ham uchraydi. Buxoro tarixi asarida ham Navro‘z va unga bog‘liq urf-odatlar haqida ma‘lumotlar berilgan.

Navro‘z faqatgina ma‘lum bir sanani nishonlash emas, balki tabiatning uyg‘onishi, kun va tun tenglashuvi, bahorning kirib kelishi bilan bog‘liq hayotiy-falsafiy bayramdir. Shu bois Sharq xalqlarida u mehnat, bunyodkorlik va yangilanish bayrami sifatida qaralgan. Dehqonlar aynan shu kuni dala ishlarini boshlagan, urug‘ qadagan va yer haydash marosimlarini bajargan [6, 24-b.].

Xususan, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Navro‘z “Navro‘zi kishovarzon” — dehqonlar bayrami sifatida tilga olinadi. Dehqonlar shu kuni dalaga chiqib, birinchi urug‘ni ekanlar, ho‘kizlarning shoxlari va bo‘yinturug‘larini moylash kabi urf-odatlar bajarilgan. Bu odatlar mehnatning barakali bo‘lishiga ishonch bilan bog‘langan. [5, 28-b.]

Navro‘z o‘zining qariyb 3000 yildan ortiq tarixiga ega bo‘lib, barcha ijtimoiy qatlamlar uchun umumxalq bayrami sifatida nishonlangan. U hukmdorlar va oddiy xalq uchun ham birdek muqaddas va ezgulik ramzi bo‘lgan.

Navro‘z bilan bog‘liq ko‘plab marosimlar bugungi kungacha xalqimiz turmush tarzida saqlanib qolgan. Ularning bir qismi zardushtiylik an‘analari bilan bog‘liq bo‘lib, Avestoda ham dehqonchilik va yerga munosabatga oid muhim g‘oyalar ifodalangan.

Dehqonlar yerga urug‘ qadashi munosabati bilan “Dalaga qo‘sh chiqarish”, “Shoxmoy”, “Ekin sayli”, “Qo‘sh oshi” nomlari bilan yuritiluvchi maxsus marosimlar o‘tkazganlar. Hosilni yig‘ib olishda esa “Ona bug‘doy”, “Xirmon to‘yi”, “Hosil bayrami” kabi tantanalar bo‘lib o‘tgan.

“Ona bug‘doy” marosimida oxirgi tutam bug‘doy “Ona bug‘doy” deb atalib, o‘rib olinganidan so‘ng maxsus tutam sifatida xonadonga olib borilgan va uying to‘riga osib qo‘yilib, ko‘klamgacha ehtiyotlab saqlangan. Bahorda uning bir qismidan non yopilib, dalaga urug‘ sepishga chiqqan dehqonlarga ulashilgan. Qolgan qismi esa urug‘lik sifatida ishlatilgan.

G‘allakorlar “Ona bug‘doy”dan tayyorlangan nonni iste‘mol qilib, “Bu yil ham hosil mo‘l-ko‘l bo‘lsin!”, “Ona bug‘doy o‘zi qo‘llasin!”, “Bobo dehqon madadkor bo‘lsin” deya duo qilganlar va qolgan donni urug‘ sifatida yerga sepganlar. Non qadri tushunchasi xalq ongida yer, ona tabiat, mehnat va inson sha‘ni bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan.

Navro‘z bahor faslining boshlanishi, aniqrog‘i tengkunlik bayramidir. U astronomik jihatdan ham muhim bo‘lib, “Hamal”, “Burj”, “Yil boshi” kabi

tushunchalar Yerning Quyosh tizimidagi harakati va vaqtni belgilash bilan bog‘liqdir [7, 293-309-b.].

Navro‘z yangilanish, yangi kun va yangi hayot ramzi bo‘lish bilan birga poklik, shodlik, ma‘naviyat va bir-biriga mehr-oqibat timsolidir. Shu bois Navro‘z xalqimiz uchun milliy iftixor, o‘zlikni anglash va hamjihatlik ramzi sifatida qadrlanadi, yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi [8, 279-285-bb.]. U shunchaki bayram emas, balki insoniy tuyg‘ularni yuksaltiruvchi, xalqni birlashtiruvchi va jamiyatda yagona Vatan tuyg‘usini mustahkamlovchi umumxalq bayramidir.

Navro‘z — Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari uchun eng qadimiy va eng muqaddas bayramlardan biridir. U nafaqat yilning yangilanishi, balki inson ruhiy olamining ham poklanishi, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikning qayta tiklanishi ramzi sifatida qaraladi. Navro‘z bahorning kirib kelishi, tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘liq bo‘lib, yer yuzida yangi hayot boshlanishini anglatadi. Qishning sovuq va og‘ir kunlari ortda qolib, tabiat yana yashillikka burkanadi. Shu sababli Navro‘z “yangi kun”, “yangi yil” va “yangi umidlar” bayrami sifatida nishonlanadi.

Navro‘z arafasida odamlar uylarini tozalaydi, eski narsalardan qutuladi va yangi yilga pok qalb bilan kirishga harakat qiladi. Bu nafaqat tashqi tozalik, balki ichki ma‘naviy poklanish ramzidir. Insonlar o‘zaro gina-kuduratlarini unutib, kechirimlilik va tinchlikni targ‘ib qiladi. Navro‘z — xalqning eng quvonchli bayramlaridan biri. Bu kunda turli sayillar, milliy o‘yinlar, qo‘shiqlar, raqslar va ommaviy tadbirlar o‘tkaziladi. Dasturxonlar turli milliy taomlar bilan bezatiladi, ayniqsa sumalak kabi bahoriy taomlar tayyorlanadi. Bu quvonch va birlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Navro‘zda insonlar bir-birini ziyorat qiladi, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr ko‘rsatadi. Qarindoshlar va qo‘shnilar bilan aloqalar mustahkamlanadi. Bu bayram jamiyatda mehr-oqibat, hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Navro‘z faqatgina fasl almashinuvi emas, balki inson ruhiyatining yangilanishi, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim madaniy-ma‘naviy hodisadir. U insonlarni tabiat bilan uyg‘un yashashga, yaxshilik va ezgulikka intilishga undaydi.

## **XULOSA**

Navro‘z eng qadimiy bayramlardan biri bo‘lib, bir necha ming yillardan buyon o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini namoyon etib kelmoqda. U Sharq xalqlari tomonidan bahor bayrami sifatida asrlar davomida insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik va sabr-toqat kabi fazilatlarni targ‘ib etgan holda nishonlanib kelinadi. Bu bayram insoniyatning o‘zligini ilk bor yorqin ifoda etgan muhim madaniy hodisa sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Navro‘z — insoniyat madaniy taraqqiyotida

chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan, nafaqat tabiiy fasllar almashinuvi, balki ijtimoiy-ma'naviy yangilanish jarayonini ham ifodalovchi muhim madaniy hodisadir. Navruz Ushbu bayram qadimiy agrar sivilizatsiyalar dunyoqarashi bilan bog'liq holda shakllanib, keyinchalik Sharq xalqlari, xususan Markaziy Osiyo xalqlarining milliy an'ana va qadriyatlari tizimida chuqur o'rin egallagan. Ilmiy jihatdan qaralganda, Shu jihatdan Navro'z inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni aks ettiruvchi universal madaniy model sifatida ham talqin qilinadi. Navro'zning ijtimoiy-falsafiy mohiyati uning insonparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bayram davrida kechirimlilik, bag'rikenglik, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi qadriyatlarning kuchayishi jamiyatning axloqiy barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida xizmat qiladi. Navro'z - bu nafaqat yilning boshlanishi yoki fasllar almashinuvi belgisi, balki insoniyatning tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillarini, ma'naviy poklanish g'oyalarini va ijtimoiy birdamlik qadriyatlarini mujassam etgan murakkab madaniy-falsafiy tizimdir. Uning ilmiy o'rganilishi esa tarix, etnologiya, madaniyatshunoslik va falsafa kabi fanlar kesimida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Firdavsiy. Shohnoma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. – B.24.
2. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1993. – B.76.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent, 2022. – B.68.
4. Asqar Mahkam. Avesto. – Toshkent, 2001.
5. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent, 1993. – B.24.
6. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-jild. – Toshkent, 1960.
7. Masharipova G.K. Atalarimizning islamiy inonchiligi va kutladiklari to'renleri. Uluslararası Türk kùltürü Sempozyumu 2nd International Turkish Culture Symposium - Turkish Culture Throug Developmentak Periods - 7-8 ekim/October 2024. Ankara. - S. 293-309.
8. Masharipova G.K. Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasining o'rni. "Umumta'lim fanlarni sinxron va asinxron bog'lab o'quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv" mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani mat. Toshkent – 2024.25-26.10. - B. 279-285.